YOSHLAR ORASIDA GIYOHVAND MODDALAR ISTE’MOLI XALQARO SO‘ROVNOMALAR ASOSIDA EMPIRIK TAHLIL

O‘rinboyev Ulug‘bek O‘rolboy o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika instituti
“Milliy g‘oya va falsafa”kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘smirlarning bir turdagi moddani iste’mol qilishi boshqa turdagi moddalarni iste’mol qilish xavfini oshiradimi-yo‘qmi, foydalanish ketma-ketligidan qat’i nazar, tahlil qilingan. 2017 yilda 2014-yilda o‘tkazilgan Milliy giyohvand moddalar iste’moli va salomatlik bo‘yicha so‘rov (NSDUH) ma’lumotlari tahlil qilingan. Tadqiqot 12–17 yoshdagi 17 000 nafar yoshni qamrab olgan bo‘lib, u AQShning fuqarolik, muassasalarga joylashtirilmagan aholisi orasida modda iste’molini ifodalovchi milliy darajadagi reprezentativ ma’lumotlarga asoslangan. Deskriptiv tahlillar va ko‘p omilli logistik regressiya modellari qo‘llangan.

Kalit so‘zlar: yoshlar, modda iste’moli, giyohvand moddalar, alkogol iste’moli, tamaki iste’moli, marixuana, psixoaktiv moddalar, ko‘p modda iste’moli, milliy so‘rov, epidemiologik tadqiqot, logistik regressiya, xavf omillari, profilaktika, o‘smirlik davri, sog‘liqni saqlash siyosati.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘smirlik davrida marixuana, alkogol va tamaki iste’molini boshlash keyinchalik giyohvandlikka moyillikni hamda boshqa salbiy oqibatlarni sezilarli darajada oshiradi. Dunyoning bir qancha mamlakatlarida marixuana iste’molining tibbiylashtirilishi, qonuniylashtirilishi va ijtimoiy jihatdan me’yorlashuvi ushbu jarayonning yoshlar orasidagi ta’siri hamda uning boshqa xavfli moddalar iste’moli bilan bog‘liq o‘zgarishlarni qanday shakllantirishi borasidagi ilmiy va ijtimoiy munozaralarni kuchaytirmoqda.

Yoshlarning giyohvandlikka nisbatan yuqori zaifligi, boshqa salbiy oqibatlarga moyilligi hamda so‘nggi yillarda opioid moddalarga bog‘liqlik va o‘lim holatlarining keskin ortishi yoshlar orasida modda iste’molini oldini olishni milliy darajadagi muhim sog‘liqni saqlash ustuvor vazifasi sifatida belgilash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mavjud tadqiqotlar modda iste’molini boshlash va uning kuchayishiga olib keluvchi turli xavf hamda himoya qiluvchi omillarni o‘rganmoqda. Shu nuqtayi nazardan, samarali profilaktika faqat alohida moddalarga emas, balki barcha turdagi psixoaktiv moddalarning umumiy iste’molini qamrab olgan kompleks yondashuv asosida amalga oshirilsa, ko‘proq natija beradi.

Marixuanani yetishtirish oshib , uning qonuniy va ijtimoiy jihatdan qabul qilinishi kengayib borar ekan, yoshlar orasida uning iste’molini kuchaytiruvchi omillarni, xususan alkogol va tamaki (nikotin) hamda boshqa noqonuniy moddalar bilan bog‘liqligini o‘rganish muhim sog‘liqni saqlash masalasiga aylanmoqda.

Ilk tadqiqotlardan biri Kandel va Faust (1975) tomonidan Nyu-York shtati maktab o‘quvchilari orasida o‘tkazilgan bo‘lib, unda 8000 dan ortiq respondent ishtirok etgan. Natijalarga ko‘ra, tamaki chekish va alkogol iste’molini boshlagan o‘smirlar qisqa muddat ichida (5–6 oy oralig‘ida) marixuana iste’moliga o‘tish ehtimoli yuqori bo‘lgan. Aksincha, ushbu moddalarni iste’mol qilmaganlar orasida marixuana iste’moli sezilarli darajada past ko‘rsatkichni tashkil etgan. Bundan tashqari, marixuana iste’mol qilgan yoshlar boshqa noqonuniy moddalardan foydalanishga ham ko‘proq moyil ekani aniqlangan.

Xuddi shunday natijalar AQShdagi O‘smirlar salomatligi bo‘yicha Milliy tadqiqot ma’lumotlarida ham tasdiqlangan. Ushbu tadqiqot 16 yoshgacha bo‘lgan o‘smirlar orasida alkogol, tamaki va marixuana iste’molining erta boshlanish shakllarini tahlil qilib, bir nechta moddalarning birgalikda erta iste’moli individual modda iste’moliga nisbatan ko‘proq uchrashini ko‘rsatgan.

Shuningdek, Miech va boshqalar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot ham o‘smirlar orasida marixuana iste’moli darajasi tamaki chekish, alkogolni haddan tashqari iste’mol qilish hamda hech qanday modda iste’mol qilmaydigan guruhlar o‘rtasida sezilarli farqlanishini ko‘rsatib, psixoaktiv moddalar iste’moli o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik mavjudligini yanada mustahkamlagan.

So‘nggi yillarda xalqaro tadqiqotlar asosida taqiqlangan modda iste’molini boshlashda umumiy xavf omillari mavjudligi haqidagi yondashuv keng tarqalmoqda. Ushbu konsepsiyaga ko‘ra, giyohvand moddalarni erta iste’mol qilish asosan umumiy biologik va psixologik moyilliklar bilan bog‘liq bo‘lib, qaysi moddaning birinchi bo‘lib iste’mol qilinishi esa shaxsiy xususiyatlar, ijtimoiy muhit va moddalar mavjudligi darajasi bilan belgilanadi.

Shu bilan birga, keyingi epidemiologik va biologik tadqiqotlar qanday natijani ko‘rsatishidan qat’i nazar, modda iste’mol qilishning shakllari va dinamikasi yoshlar uchun mo‘ljallangan profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda.

Ushbu mavzuda 12–17 yoshdagi o‘smirlar orasida modda iste’molining so‘nggi davrdagi tendensiyalarini xalqaro reprezentativ so‘rov ma’lumotlari asosida tahlil qildi. Tadqiqotda asosiy e’tibor bir turdagi modda iste’moli boshqa moddalardan foydalanish ehtimolini oshiradimi yoki aksincha, bir moddaning iste’mol qilinmasligi boshqa moddalardan foydalanish xavfini kamaytiradimi, degan masalaga qaratildi.

Aholi asosida amalga oshirilgan ushbu yondashuv 12–17 yoshdagi eng zaif guruhda modda iste’moliga umumiy xavf omillarini baholash imkonini beradi va yoshlar salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan milliy profilaktika siyosatlarini ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ko‘pchilik modda iste’moli bilan bog‘liq buzilishlar aynan o‘smirlik davrida boshlanishi bilan izohlanadi, shu sababli ushbu davrda profilaktik choralarni kuchaytirish sog‘liqni saqlash tizimi uchun dolzarb ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yoshlar orasida bir turdagi moddaning iste’moli boshqa turdagi moddalardan foydalanish ehtimolini sezilarli darajada oshiradi.

Bu holat barcha o‘smirlarni qamrab oluvchi universal profilaktika dasturlarini amalga oshirish zarurligini asoslaydi. Mazkur yondashuvning asosiy maqsadi — o‘smirlar orasida hech qanday qaramlikni keltirib chiqaruvchi moddalardan voz kechish qarorini qabul qiluvchi yoshlar ulushini oshirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. Breslau *et al.* Early smoking initiation and nicotine dependence in a cohort of young adults Drug Alcohol Depend. (1993)
2. C.Y. Chen *et al.* Who becomes cannabis dependent soon after onset of use? Epidemiological evidence from the United States: 2000–2001 Drug Alcohol Depend. (2005)
3. C.Y. Chen *et al.* Early-onset drug use and risk for drug dependence problems Addict. Behav. (2009)
4. L. Degenhardt *et al.* The increasing global health priority of substance use in young people Lancet Psychiatr.(2016)
5. B.F. Grant *et al.* Age at onset of alcohol use and its association with DSM-IV alcohol abuse and dependence: results from the national longitudinal alcohol epidemiologic survey J. Subst. Abus. (1997)
6. W.D. Hall *et al.*Why young people’s substance use matters for global health Lancet Psychiatr. (2016)